

## UBAYDULLAXON DAVRIDA SHAYBONIYLAR SALTANATI

Elomon Erkinjonov,

Namangan davlat universiteti “Tarix” yo’nalishi 2-bosqich talabasi

Erkinjonov Elomon Umidjon o'g'li.

Namangan davlat unversiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Tarix yo'nalishi T.R.X.A.U.-21guruhi 2-kurs talabasi

### Annotatsiya

Ushbu maqolada Ubaydullaxon davrida Shayboniylar saltanati haqida so’z yuritilgan.

**Kalit so’zlar:** Muhammad Shayboniyxon, Temuriylar hukmronligi, Bobur Mirzo, Safaviy va Temuriy sulolalari, qizilbosh shialar, harbiy yurishlarni.

1510-yilning 2-dekabri Movrounnahrning siyosiy tarixini tubdan o’zgartirib tashlagan voqea sodir bo’ldi. Mamalakatning yetakchisi, Shayboniy Sultonlarning yo’lboshchisi bo’lgan, “Xalifai ur Rahmon, Imom az-Zamon” sifatida zamondoshlari tomonidan ulug’langan Muhammad Shayboniyxon Eron qizilboshlari yetakchisi Shoh Ismoil I Safaviy bilan bo’lgan jangda halok bo’ldi.<sup>1</sup> Endilikda, Turonda qolgan Shayboniylar orasida zudlik bilan xon tayyorlash va Eron hujumi arafasida birlashidek masala ko’ngdalang turar edi. Bundan tashqari qozoq sultoni Qosimxon ham Movrounnahrga yurish qilib, Shayboniylarni bu yerdagi mulklarini o’ziga tobe o’lkaga aylantirmoqchi edi. Shuningdek, Shayboqxon tomonidan ota vatanidan quvilgan Bobur uchun ham siyosiy vaziyat uning foydasiga hal bo’lib bo’lgan edi. Bu vaziyat Shayboniyni ayanchli o’limi orqali paydo bo’ldi. 1510-yildayoq Shayboniy Sultonlar Ismoil I Safaviy bilan sulh tuzishdi, unga ko’ra chegara Amudaryodan o’tishi, shimoldagi yerlarga qizilboshlar hujum qilmasligi, Shayboniylar esa Xurasonga davosidan voz kechishi kerak edi. Biroq keying voqealar bu ittifoqni samarasiz tuzilganligini isbotladi. Ismoil Kobul hukumdori Temuriyzoda Bobur Mirzo bilan ittifoq tuzib uni Shayboniylar ustiga yo’naltirishga muvafaq bo’ladi. 1511-yilda Hisor, Ko’lob, Qarshi, Buxoro hududlari Bobur Mirzo tomonidan eggalanib, Samarqand ham qo’lga kiritildi.<sup>2</sup> Qisqa fursatda Movrounnahrda yana Temuriylar hukmronligi o’rnatildi. Boburning sunniylik

<sup>1</sup> B.J.Eshov, A.A.Odilov. O’zbekiston tarixi. T.: “Donishmand ziyosi” nashriyoti\_2020.178b.

<sup>2</sup> Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиқ тарихи Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар. Т.: Шарқ\_2001.154б.



oqimining Imomi A'zam mazhabdaligi Eron lashkari va shoh Ismoilni sunniylikga qarama-qarshi oqimda bo'lgan shialikdaligi siyosiy, diny nifoqni paydo bo'lishiga olib keldi. Bundan tashqari Bobur Mirzo Movarounnahrda shohning siyosatiga mos bo'lmagan ishlarni amalga oshiradi. U o'zi bilan ergashib kelgan qo'shinlarni mamlakatdan chiqarib yuborishga urinishlari Eron shohiga yoqmaydi. 1510-1512-yillardagi Safaviy va Temuriy sulolalari ittifoqi Shayboniylarni hamjihatligi natijasida tarqatib yuborildi. O'zaro Eron Movarounnahr o'rtasiga sabab bo'lgan, kurash avj oldi. Bunga Shayboniyxonning o'ldirilishi ham sabab bo'lgan. Shundan so'ng markazga siyosiy jihatdan qaram amalda mustaqil bo'lgan bir necha xonliklar shakllandi. Ular o'z syurg'ollarini doimo mustaqil idora etishga urinib kelishdi. Toshkentda Suyunchixo'ja, Buxoroda dastlab Ubaydullaxon, keyin Jonibek Sulton avlodlari va hakoza. Ular ichida Buxoroni nazorat qilgan Ubaydulla Sultonning mavqeyi yuqori edi. Shayboniyxonning eng kuchli sarkardalaridan biri bo'lgan Ubaydullaxon amakisidan qolgan davlatni birlashtirishga harakat qilganligi, Eron bosqinchilariga qarshi turgan shaxs sifatida o'zbek davlatchiligida o'zining izini qoldirgan shaxs sifatida ko'riladi.

Ubaydullaxon Abulxayrixonning o'g'li Shohbudog' Sultonning nabirasi hisoblanadi. Otasi Shayboniyning ukasi Mahmud Sultonni o'g'li bo'lgan. 1486-yil amakisini Xorazmga yurishi paytida dunyoga kelgan. Otasi o'g'liga ism qo'yishni piri Xo'ja Ahrordan so'rab unga maktub yo'llaydi, o'z davrining yetuk shaxsi bo'lgan avliyo chaqaloqa o'z ismini beradi, ya'ni Ubaydullo. Biroz ilgari ketib, shuni aytish kerakki Shayboniyxon tomonidan Xo'ja ahror valiyning o'g'li Xo'ja Yahyoning o'ldirilishi Mahmud Sultonga yoqmaydi. Bundan norozi bo'lgan Mahmud Sulton akasi bilan bir muddat kelisholmaydi.<sup>3</sup>

Ubaydullaxon o'z davrining yetuk shaxslaridan taxsil oldi, harbiy ilmini puxta o'rgandi. Shayboniyxon jiyaning tarbiyasidan, aql zakovatidan ma'mnun edi. Tarixchilar Ubaydullaxonni taqvdor, kamtar hisoblashgan. U 1504-yil otasi vafotidan so'ng, amakisi tomonidan Qarshi qa'lasiga voliy etib tayinlanadi. Ubaydullaxon 1505-yildan boshlab amakisini harbiy ishlarida ilk faolyatini boshlaydi. Buxoro lashkarlariga bosh bo'lib, Xorazm yurishida ishtrok etadi. 1505-1509-yillarda Shayboniyxonni barcha yurishlarida ishtrok etdi. 1504-yili otasi Mahmud Sulton vafot etgach, Ubaydullaxon otasining mulklariga noib etib tayinlanadi. Ubaydullaxon otasi vafotidan so'ng, Buxoro, Qarshi, Qunduz shahar va viloyatlariga ma'sul edi. Bundan tashqari o'zining harbiy qo'shini ham mavjud edi. Ubaydullaxon Shayboniyxonni uch ishonchli sarkardasi (o'g'li Temur

<sup>3</sup> А.Қандаҳоров. Бухоро хонлигида Карманани тутган ўрни. Т.: "Fan va texnologiya". 2016. 156.



Sulton,jiyanlari Jonibek Sulton,Ubaydullaxon)dan biri edi.1510-yil Ubaydullaxon amakisi Shayboniyxonni Eron lashkari tomonidan Marvda qamal qilinganini eshitib barcha Shayboniylarni birlashtirib Amudaryo qirg'og'iga yetib kelid.Biroq,Shayboniyxon ayanchli o'lim topdi.Shayboniylar o'rtasida parokandalik boshlandi.Ubaydullaxon o'z qo'shini bilan Qarshi qa'lasiga chekindi.Bu paytda esa Bobur Mirzo boshchiligidagi qo'shin dastlab Xisorni so'ng Qarshi,Buxoroni va Samarqandni eggalab,vaqtinchalik bo'lsada Movarounnahrda Temuriylar hokimiyatini o'rnatdi. Shayboniy Sultonlar shimoliy hududlar Turkiston,Toshkent tomon chekinishdi.Movarounnahrda qizilbosh shialar ta'siri ostidagi Bobur Mirzo hukmronligi o'rnatildi.Bobur Mirzo shialarni Turondan chiqib ketishi uchun harakat qildi.Bu hol Safaviyga yoqmas edi,shu boisdan Ismoil I Najmi Soniy boshchiligida katta qo'shinni Samarqandga jo'natadi.1512-yil Najmi Soniy Qarshi qamalini uyushtirdi,qamal himoyachilari,tinch aholi qizilboshlar tomonidan qilichdan o'tkazildi.Ubaydulla Sultoni tog'asi Shayhim Mirzo va o'z davrida Temuriylar va Shayboniylar saroyida xizmat qilgan Kamoliddin Binoyi qamal paytida jangda halok bo'lishdi.

Bu paytda Ubaydullaxon Shayboniy Sultonlarni bir joyga to'plashga urinayotgan edi,Ubaydullaxon oz-moz qiyinchilikka uchradi.Ko'plab,Shayboniy Sultonlar yurak yutib,birlasha olmadilar shunda Ubaydullaxonni piri bo'lmish,Mir Arab(asl ismi Sayyid Abulloh) Shayboniylarni Ubaydullaxon atrofida birlashtirishga muvaffaq bo'ldi.Ubaydullaxon 3 ming askar bilan daslab Buxaroni egallaydi.O'sha davr tarixchilari ma'lumotiga ko'ra bu paytda Bobur Mirzoning 30-40-ming kishilik qo'shini Samarqandda mavjud edi.Lekin,muarrixlar tomonidan o'z hukmdorini ulug'lab ko'rsatish oddatiy hol bo'lganligi bois bu raqamlar biroz ishonchsizdir.1512-yil 28-aprelda Ubaydullaxon va Temur Sulton Boburga Cho'li Malikda zarba berib, uni Hisorga chekinishga majbur qilishdi.15012-yil 24-noyabrda Najmi Soniy qo'shini mag'lub etildi,o'zi esa qo'lga olinib,Qarshidagi qatlom uchun shavqatsiz ravishda qatl etildi.<sup>4</sup>Aynan,Ubaydullaxonni vatanimiz oldidagi xizmati mana shu yerda ko'rinadi.U Eron bosqinchilarini mamlakat hududidan siqib chiqardi.Movarounnahr Eronga qaram bo'lib,qolishlikdan Ubaydullaxon orqali saqlab qolindi.

1512-yil Shayboniy taxtiga Chingizxon yasoqiga ko'ra Ko'chkunchixon o'tqazildi.Buxoro va uning atroflari endilikda Ubaydullaxonning doimiy mulkiga aylandi.Ko'chkunchixon harbiy ishlarga yo'qligi,ilm-fanga mashg'ulligi

<sup>4</sup>B.J.Eshov,A.A.Odilov.O'zbekiston tarixi.T.:''Donishmand ziyosi''nashiryoti\_2020.179b.



hokimyatni Ubaydullaxon boshqarishiga imkon berdi. Lekin, Shayboniy Sultonlar amalda Markaziy hokimyatga bo'ysunishsada o'zlariga ajratilgan mulklarda mustaqil siyosat olib borishar edi. Bu hol Ubaydullaxon uchun qulay imkoniyat edi. Ubaydullaxon 1512-1529-yillargacha Buxorodan turib noib sifatida faoliyat olib borgan bo'lsada, Shayboniylarni Xurasonga qarshi yurishiga boshchilik qiladi. Shayboniyxon vafoti va Movarounnahrda Eron bosqinchilarini yurishidan so'ng Shayboniylar o'ch olish maqsadida Xurasonga bir necha bor yurish qilishgan. Ubaydullaxon 1512-yildayoq harbiy yurishlarni boshlab yubordi. Dastlab, Xisro egallandi, keyin Chag'aniyon qo'llga kiritildi. Shu yilni oxirida Xurason uchun jangga kirishdi. 1513-yili Balx egallandi. Tarixchi olimlar fikriga ko'ra Ubaydullaxon boshchiligidagi Shayboniylar Savfaviylarga qarshi 1512-1529-yillar orasida 6marta harbiy yurish olib borishgan. Bu yurishlar 1514-yilgacha Temur Sulton bilan, birgalikda amalga oshirilgan bo'lsa, Temur Sulton vafotida so'ng Ubaydullaxon Safaviylarga qarshi kurashni o'zi olib boradi. Jonibek Sulton esa otda yiqilib majruh bo'lib qolishi 1514-yildan boshlab harbiy hokimyat to'liq Ubaydullaxon qo'lga o'tganligini ko'rsatar edi. Ayrim, manbalarda 1514-yil Ubaydullaxon va Qozoq xoni Qosimxon qo'shini Xisorda Safaviylar qo'shinishidan mag'lub bo'lganini yozadi, biroq bu faqat fors manbasida uchraydi. 1523-yili Ubaydullaxon Hirotni qamal qildi. 1528-yili qisqa muddatga Mashhad va Astrobodni egallaydi, 1528-yili Jom yaqinida Xargerd mavzeida Safaviy hukumdori Ismoil I ning vorisi Shoh Tahmasp I bilan bo'lgan jangda Ubaydullaxon qo'shini o'lja ilinjida tartibni buzganligi uchun Shayboniylar mag'lub bo'ladi. 1529-yili Kuchkunchixonni vafot etishi Ubaydullaxonni Samarqandga qaytishi uchun sabab bo'ldi. Biroq, hali u taxtga o'tirolmas edi. Sulola silsilasiga ko'ra taxtga eng Yoshi ulug' o'tirishi kerak edi. Kuchkunchixon davrida Suyunchixo'ja, Jonibek Sulton, Abu Saidlar taxt vorisi sifatida edilar. Ular birin ketin vafot etishdi. Abu Saidni Ubaydullaxondan Yoshi katta bo'lganligi uchun taxtga u o'tirdi. 1528-1533-yillarda Xurasonga yurish qilib Xirotda, Mashhad, Astrobodni egalladi. Ushbu ma'lumotlar tarixchi Muhammaddiyor ibn Arab Qatag'onning "Musaxxir al bilod" ya'ni "Mamlakatlarni egallanishi" asarida berilgan.<sup>5</sup>

1533-yil Chingizxon yasoqi va turkiy udumlarga mos ravishda Shayboniylarni eng ulug'i va Yoshi kattasi sifatida taxtga o'tirdi. Ubaydullaxon poytaxt sifatida Buxoroni tanlaydi. Ko'plab olimlar bunga bir necha dalillarni keltirishadi. Asosiy sabablar esa, birinchidan Samarqand Ko'chkunchixon mulki edi. Bundan tashqari

<sup>5</sup> Мухаммидиёр ибн Араб Қатағон. "Мусаххир ал-билод" (Мамлакатларнинг эгалланиши). Форс тилидан таржима: И.Бекжонов, Д. Сангирова. 134б.



Buxoro Ubaydullaxonga ota mulk edi. Ubaydullaxon ilmi, shoir tabiat hukmdor edi. Shu boisdan ham uning davrida obodonchilik va ilm fanga xazinadan mablag' ajratildi. Mir Arabni qo'llovini unutmagan Ubaydullaxon qo'llga kiritilgan o'ljalar hisobiga Buxoroda madrasa qurilishiga homiylik qildi. Ubaydullaxon Safaviylar bilan kurash olib borish chog'ida Bobur Mirzoni unutmadi. U bilan diplomatik aloqalar olib bordi. U o'z elchilarini Bobur Mirzoga jo'natdi. 1514-yili Usmoniy davlatiga Sulton Salim I Yovuzga elchi jo'natdi bundan maqsad esa Safaviylarga qarshi kurashga turk Sultonini o'ziga ittifoqchi qilib olmoqchi edi. Aynan, shu yili Safaviylarga qarshi Sulton Salim yurish qiladi.

Ubaydullaxon davrida Xorazm ham bo'sundirildi. Xon sa'nat, she'ryat, musiqa bilan shug'ullangan. Xon Ubayd, Qul Ubaydiy, Ubaydullo taxaluslari bilan g'azal va ruboiylar bitdi. "G'ayratnoma", "Shavqatnoma", "Kitob us-saloat" nomli asari ham bizning davrimizgacha yetib kelgan. <sup>6</sup>Ubaydullaxon o'z g'azallari orqali o'ziga ta'rif ham bergan Muhammadiy Ibn Qatag'on asraida bu haqida ma'lumot berilgan.

*El, ko'plukni ko'zga nega ilgaysiz,  
Yolg'iz kishidan ham nega kesilgaysiz,  
Yolg'iz deb oni kesilgaysiz ondikim,  
Yolg'izning erur yori Xudo bilgaysiz.<sup>7</sup>*

Bunda xon Mahmud Sultonning yolg'iz o'g'li ekanligi ko'rsatilmoqda. Ubaydullaxon ijodi bugungi kunda o'rganilib, bizgacha. Xon ko'plab g'azal, tuyuqlar yozgan. Uning jami ijod namunalari soni 700 dan ortiqdir.

Ubaydullaxon 1540-yili 54 yoshida vafot etdi. Uning hukronligi va noibliigi davrida Eron bosqiniga qarshi kurashlar olib borildi. O'z navbatida esa mamlakatni Shayboniyxon davridagi hududga qaytarish uchun harakat qilindi. Ubaydullaxon qisman bo'lsada o'z niyatiga yetishdi. U Xorazm va Xurasoni Hirot, Mashxad, Astrobod shaharlarida o'z hokimyatini o'rnatdi. Ubaydullaxon, vatan oldidagi eng buyuk xizmati xalqni Eron bosqinidan saqlab qolganligi edi. Ubaydullaxonning o'zbek davlatchiligida tutgan o'rni birgina bosqinchilarga qarshi kurash bilan ifodalanmay, u markaziy hokimyatni jipis holda ushlab turgan shaxs hisoblanadi.

<sup>6</sup> A. Qandaxorov. Buxoro xonligida Karmanani tutgan urni. T.: "Fan va texnologiya". 2016. 196.

<sup>7</sup> A. Zamonov. Buxoro xonligi tarixi. T.: Bayoz. 2021. 47b.



---

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Мухаммддиёр ибн Қатағон. “Мусаххир ал-билод” (Мамлакатларнинг эгалланиши). Форс тилидан таржима: И.Бекжонов, Д. Сангирова.426б.
2. Азамат Зиё.Ўзбек давлатчилиқ тарихи Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар.Т.:Шарқ\_2001.366б.
3. А.Zamonov.Vuxoro хонлиги тарихи.Т.:Bayoz.2021.262b.
4. В.Ј.Eshov,А.А.Odilov.O’zbekiston тарихи.Т.:”Donishmand ziyosi”nashiryoti\_2020.405b.
5. А.Қандаҳоров.Бухаро хонлигида Карманани тутган ўрни.Т.: “Fan va texnologiya”.2016.62б.

